

**KORREKSION PEDAGOGIKADA INDIVIDUAL  
YONDASHUVNING AHAMIYATI**

*DTPI, Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari*

*Yo'ldosheva Maftuna,*

*Sharapova Munisa*

*Shonazarova Go'zaloy*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada korreksion pedagogika fanining zamonaviy yo'nalishlari va undagi individual yondashuvning o'rni yoritilgan. Maxsus pedagogik ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzilgan ta'lim-tarbiyaning natijadorligi tahlil qilingan. Korreksion ishlar samaradorligini oshirishda individual yondashuvning psixologik-pedagogik asoslari, metodik tamoyillari va real amaliyotdagi namunalari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** korreksion pedagogika, maxsus ehtiyoj, individual yondashuv, ta'lim, reabilitatsiya, rivojlanish.

Bugungi kunda ta'lim tizimi tobora insonparvarlik va individuallashtirish tamoyillariga asoslanmoqda. Har bir bolaning imkoniyat va ehtiyojlarini e'tiborga olish orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil etish – zamonaviy pedagogikaning asosiylaridan biridir. Ayniqsa, rivojlanishida turli xildagi cheklov larga ega bo'lgan bolalar bilan ishlashda bu yondashuv yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Korreksion pedagogika – bu maxsus ehtiyojli bolalarni rivojlantirish, ularni o'qitish va tarbiyalashga qaratilgan pedagogikaning mustaqil tarmog'i hisoblanadi. Ushbu fan nafaqat bolaning jismoniy yoki aqliy nuqsonini kamaytirishga, balki uning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga ham xizmat qiladi.



Shuningdek, bu yo'nalishda har bir bolaning psixologik, aqliy va emotsiyal xususiyatlariga mos tarzda yondashish zarur bo'ladi.

Korreksion pedagogika zamonaviy psixologiya, tibbiyot va sotsiologiya fanlari bilan chambarchas bog'langan holda, tizimli, ilmiy va amaliy yondashuvni talab qiladi. Ayniqsa, individual yondashuv – bu jarayonning markaziylig'oyasidir. Chunki har bir bola o'ziga xos bo'lib, uning rivojlanishidagi xatoliklar, sharoitlar va imkoniyatlar har xil bo'lishi mumkin.

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi – imkoniyati cheklangan bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashdir. Bu yo'nalishda individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir bola o'ziga xos rivojlanish sur'ati, qiziqishlari, psixologik holati va muammolariga ega. Shu bois, korreksion pedagogikada yagona, hammaga bir xil qo'llaniladigan metodika o'zini oqlamaydi.

Individual yondashuv – bu har bir bola uchun alohida ta'lim strategiyasi ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bunda quyidagi bosqichlar muhim hisoblanadi:

1. Diagnostika bosqichi – bolaning aqliy, psixologik va jismoniy rivojlanish darajasi aniqlanadi. Maxsus testlar, kuzatuv, suhbat orqali bolaning ehtiyojlari aniqlanadi.
2. Individual reja tuzish – bolaning imkoniyat va ehtiyojlariga mos ta'lim-tarbiya rejasi tuziladi. Bu reja moslashtirilgan dasturlar va differensial yondashuv asosida amalga oshiriladi.
3. Moslashtirilgan metod va vositalardan foydalanish – dars jarayonida bola qobiliyatiga mos keladigan metodikalar qo'llaniladi: vizual ko'rsatmalar, harakatli o'yinlar, sensor muhit, nutq rivojlantirish mashqlari va boshqalar.

4. Psixologik-pedagogik yordam – bola va uning oilasiga doimiy ruhiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy muhitga integratsiyalashishiga ko'maklashish.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, individual yondashuv asosida olib borilgan ta'lim bolalarda ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi: nutqdagi muammolar kamayadi, muloqot ko'nikmalarini rivojlanadi, o'ziga bo'lgan ishonch oshadi. Shu bilan birga, ularning mustaqil fikrlashi, harakatlarni rejalashtirish va muammoli vaziyatlardan chiqish ko'nikmalarini ham shakllanadi.

Individual yondashuvning asosiy afzalligi – bolaning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy muhitga moslashuvi hamda o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishdir. Bu esa nafaqat ta'limdagi muvaffaqiyat, balki ijtimoiy hayotga moslashuvda ham muhim rol o'yndaydi.

Yana bir muhim jihat – o'qituvchining roli. U nafaqat bilim beruvchi, balki maslahatchi, yo'naltiruvchi, ruhiy tayanch bo'lishi zarur. O'qituvchi individual reja asosida har bir bola bilan alohida ishlashga tayyor bo'lishi, kreativ, sabrli va mehrli bo'lishi lozim.

Korreksion pedagogikada individual yondashuv faqatgina ta'lim sifatini oshirishga emas, balki bolalarning jamiyatga moslashuvi va o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, har bir o'qituvchi zamonaviy metodlarni chuqur o'zlashtirgan holda, har bir bolaning imkoniyatini to'g'ri yo'naltirishi lozim. Korreksion ta'limda samarali metodlardan foydalanish orqali bolalarning hayotga ijobiy munosabati shakllanadi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Axmedova N.Q., To'raqulova D.Q. Korreksion pedagogika. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.

2. Yusupova D.X. Maxsus pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
3. Axmedova G.N. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent: “Ilm ziyo”, 2021.
4. Zaynieva N.G. Korreksion pedagogikada zamonaviy metodlar. – Samarqand: “Afrosiyob print”, 2022.
6. Vygotskiy L.S. Defektologiya asoslari. – Moskva: “Pedagogika”, 1983.